

**MASTLIK HOLATIDA JINOYAT SODIR ETGANLIK UCHUN
JAVOBGARLIKNING JINOIY XUQUQIY TAVSIFI**

Noraliyev Turg'un

IIV Akademiyasi 3-o'quv kursi kursanti

Annotatsiya: Mazkur maqolada jinoiy ish ko`rinishlaridan biri bo`lmish mastlik holatida sodir etilgan jinoiy ishlar uchun belgilangan javobgarliklarning jinoiy-huquqiy tavsifi bayon etilgan hamda tahlil etilgan.

Kalit so`zlar: Jinoyat kodeksi, ma`muriy huquq, jinoyat, maslik, javobgarlik.

Demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati barqaror taraqqiyotigaga zamin yaratuvchi, insonlarning huquq va erkinliklarini to'la-to'kis ro'yobga chiqaruvchi hamda ularga xizmat qiluvchi huquqiy tizimga tayanadi. Konstitutsiya va qonun ustuvorligiga erishmay turib adolatli jamiyat barpo etib, bo'lmaydi. Ming afsuslar bo'lsinki bugungi kunda mamalakatimizda olib boirayotgan keng ko'lamli islohatlarning olib borilishiga o'zlarining jamiyat tomonidan qoralangan illatlaridan biri bo'lgan spirtli ichimliklarni iste'mol qilishga ro'ju qo'ygan shaxslar tomonidan mastlik holatida jinoyat sodir etilish holatlarning kamaymayotganligini bugun yaqqol namoyon bo'lmoqda.

etishning jinoiyat-huquqiy xususiyati nazariya va amaliyotda bahs-munozaralarga sabab bo'luvchi masalalardan hisoblanadi. Shu jihatdan ham mastlik holatini ularni boshqarishi mumkin. Shu bilan birga, birinchi navbatda qonun chiqaruvchi tomonidan o'rnatilgan kiritgan "alkogolli mastlik" tushunchasining ma'nosini ochish maqsadga muvofiq, chunki aynan shunday holatlarda shaxslar turli ijtimoiy xavfli qilmishlar sodir etishadi. Mazkur holatda avvalo, oddiy mastlikni patologik mastlikdan farqlay olish lozim. Fiziologik (oddiy) mastlik jinoyat sub'yektining

huquqqa xilof harakatlari pirovardida zararli oqibatlar kelib chiqishini anglamaganligini tasdiqlash uchun asos bo‘lishi mumkin emas. Odatda, fiziologik mastlik asta sekinlik bilan boshlanadi. Alkogol ichimlik ichayotgan shaxs o‘zini shunday holatga hech bir zo‘rliksiz ixtiyoriy ravishda solayotganligini anglaydi va tushunadi. Shuning uchun, shaxs mastlik holatida jinoyat sodir etsa, uning aqli rasoligi jinoiy javobgarlikning ob‘yektiv va sub‘yektiv tomoni asosida istisno etilmaydi.

Shu bilan birga, shaxsning intellektual-irodaviy faolityaiga ta’sir qiluvchi alkogolli mastlik, shuningdek, narkotik, psixotrop va boshqa moddalar jismoniy majburlash natijasida kelib chiqqanligi aniqlansa, bu holat jinoiy javobgarlikka tortish masalasini hal etishda e’tiborga olinishi lozim. Fiziologik mastlik holatida ob‘yektiv borliq va atrofni buzib qabul qilish holati bo‘lmaydi, faqat, patologik mastlikka to‘g‘ridan to‘g‘ri zid bo‘lgan ruhiy faoliyatning vaqtincha buzilishi sodir bo‘ladi.

Oddiy alkogolli mastlik shartli ravishda 3 darajaga bo‘linadi: yengil, o‘rta va og‘ir.

Fiziologik mastlikda mastlik darajasidan qat’i nazar, ruhiyatida ba’zi buzilishlar paydo bo‘lsa ham, biroq ular jinoyat sodir etish vaqtida, yuqorida aytilganidek, sodir qilinayotgan harakatlarini tushunish va boshqarish qobiliyatining yo‘qolishiga olib kelmaydi. Bu ham shaxsni jinoiy javobgarlikdan ozod qilmaydi.

Mastlikning yengil darajasiga atrof - muhitni qabul qilishning pasayishi, intellektual faoliyat sohasining buzilishi, diqqatning buzilishi, reaksiya va fikrlash jarayonining sekinlashuvi, shuningdek, kayfiyatdagi muvozanatning yo‘qolishi va buzilishlar xos. Mastlikning yengil darajasidagi shaxslarda kayfiyati tez o‘zgaruvchan bo‘ladi, bunda kishining o‘z holatiga tanqidiy yondashishi pasayishini, jinsiy moyillikning oshishini kuzatish mumkin.

Mastlikning o‘rta darajasidagi qoidaga ko‘ra, diqqat tez buziladi, qabul qilishning aniqligi yo‘qoladi va fikrlash jarayoni sustlashadi. Bu darajadagi mast holatda bo‘lgan shaxslar ko‘pincha jahldor va agressiv bo‘ladilarki, ba’zan bu holat

jinoyat sodir etilishiga ham olib kelishi mumkin.-Oddiy alkogol mastlikning o‘rta darajasida tasavvur qashshoqlashib, uning mazmuni ko‘p jihatdan bir xil bo‘ladi, vaziyatga qisman to‘g‘ri baho berishi natijasida ko‘p hollarda agressiv harakatlar qiladi.

Mastlikning og‘ir darajasida bosh miya funksiyasining jiddiy buzilishi kuzatiladi. Bunday holatda shaxsning ongli harakat qilishi va fikrlash qobiliyati yo‘qoladi, agressiv buzg‘unchilik qilmishlarga moyillik paydo bo‘ladi. Mastlikning og‘ir darajasida mastning har xil joylarda chuqur uyquga ketishi kuzatiladi. Mastlik holatida kishining xotirasida butunlay saqlanmaydi.

Bundan, fiziologik mastlikning istalgan darajasida bo‘lgan shaxs jinoyat sub’yekti bo‘ladi va jinoiy javobgarlikdan ozod etilmaydi, chunki, zero uning harakatlarida aqli norasolikning ham tibbiy, ham yuridik mezonlari bo‘lmaydi. Og‘ir darajaga yetmagan mastlik holati oddiy mastlikdan farqli o‘laroq, ba’zi ruhiy buzilishlar bilan o‘tishi mumkin. Bu holatda ruhiy buzilishlar kuchayib yoki aksincha, pasayib ketishi, ular paydo bo‘lishi ketma-ketligining bzilishi yoki oddiy mastlikka xos bo‘lmagan belgilarning paydo bo‘lishi ko‘zda tutiladi.

Bila turib ko‘p miqdorda alkogolli ichimlik ichish natijasida yuzaga keladigan qisqa muddatli ruhiy buzilishlarni ifodalaydigan fiziologik mastlik holatini patologik mastlik holatidan ajrata bilish, shu bilan birga, qisqa muddatli ruhiy buzilishdan butunlay farq qiladigan og‘ir darajali fiziologik mastlikni patologik mastlikdan ajrata bilish lozim.

Bu holat mastlik holatida turli xil jinoyat sodir etgan shaxslarni jinoiy javobgarlikka tortish yoki patologik mastlikdagi aqli norasolik to‘g‘risida so‘z borganda esa undan ozod qilish masalasini hal qilishda muhim ahamiyatga ega.

Psixiatriyada patologik mastlik holati - o‘tkir, qisqa muddatda o‘tadigan ruhiy buzilishlar guruhiga kiradi. U alkogolni nafaqat ko‘p, balki, kam iste‘mol qilganda ham kelib chiqadi. Bu holat uchun ongning to‘satdan o‘zgarishi xos hisoblanadi. Patologik mastlikning klinik suratida, qoidaga ko‘ra, ongning g‘ira - shiralik belgilari

va gallyusinasiya holatida alaxsirash hayajonlari birlashadi, natijada, atrofni buzib qabul qilish kelib chiqadi.

Patologik mastlik holatida sodir etiladigan jinoiy harakatlar e'tiborga molik qandaydir hodisaga nisbatan reaksiya hisoblanmaydi. Patologik mastlik to'satdan qanday boshlansa, shunday tugaydi. Ba'zida, u ko'pincha uyquga ko'chadi, qaysiki, undan so'ng to'liq amneziya boshladi, ammo bo'lib o'tgan voqealar haqida ba'zi narsalar esda koladi.

Patologik mastlikda odiy mastlikda kuzatiladigan karaxtlikdan sifat jihatdan farq qilib, ongning keskin o'zgarishi seziladi. Patologik mastlik qanday tez boshlangan bo'lsa, shunda tez tugaydi. Patologik mastlik holatida bo'lgan shaxsning o'zini bunday tutishi, avvalo, uning mavjud atrof-borliqni buzib qabul qilishi, maqsadsiz va agressiv harakatlari bilan tushuntiriladi. Sud psixiatriya amaliyotida shunga e'tibor qilinadiki, patologik mastlik qisqa muddatli psixoz sifatida ko'riladi. Agarda, tibbiy va yuridik mezonlar majmui mavjud bo'lsa, bu holatda ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxs aqli noraso deb topiladi. O'z o'zidan fiziologik (oddiy) mastlik holatida ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxs aqli raso deb topilgani tufayli, jinoyat sub'yekti bo'lsa va jinoiy javobgarlikka tortilsa, patologik mastlik holatida esa sud aqli norasolikni o'rnatasa, ushbu shaxsga nisbatan jinoiy javobgarlik istisno etiladi. Patologik mastlikni aniqlashda eng muhimi tekshiriluvchining xotirasida saqlanib qolgan voqealarni, qanday xastalik kechinmalarini eslay olishini o'rnatib olish zarur. Bu holatlarga ob'yektiv ma'lumotlarga ishonish kerak. Patologik mastlikka tashxis qo'yishda tekshiriluvchini qonunbuzarlikdan so'ng o'zini tutishi, hatti-harakati muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot mazmunida mastlik deganda, nafaqat, alkogol iste'mol qilish natijasidan kelib chiqadigan, balki, intellektual irodaviy faoliyatga ta'sir qiluvchi, giyohvand, psixotrop va boshqa moddalar qabul qilishdan kelib chiqqan holat ham tushuniladi. Mastlikning keyingi turlari jinoyat qonunchiligi uchun yangilik hisoblanadi va tibbiy nuqtai nazardan, alkogolli mastlikdan sezilarli farqqa ega. Jinoyat kodeksi 19-moddasiga binoan, giyohvand mastlik holatida ijtimoiy xavfli

qilmish sodir etgan shaxs, agar u jinoyat sub'yekti hisoblansa, jinoiy javobgarlikdan ozod etilmaydi.

Giyohvand mastlik holati dori shaklidagi yoki dori shaklida bo'lmagan giyohvand moddalarni qabul qilish yoki iste'mol qilish natijasida yuzaga keladigan mastlik holati bilan bog'liq bo'lgan masalalarni xal etish tartibi uchun jalb etilga bir qator talablardan kelib chiqishi mumkin bo'lganlarni olib qo'yish va o'tkazishning samarali tizimini ishlab chiqilishi talab etiladi kelib chiqadi. Bunday mastlik tabletka, kukun, in'yeksiya qabul qilish, kukunni burun orqali tortish, giyohvand moddalarni chekish bilan bog'liq. 1999 yil 19 avgustda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi "Giyohvand vositalari va psixotrop moddalar to'g'risida"gi qonuniga ko'ra, giyohvand vositalar deb giyohvandlik vositalari ro'yxatiga kiritilgan va O'zbekiston Respublikasida nazoratga olingan, kelib chiqishi sintetik yoki tabiiy moddalar, tarkibida giyohvandlik moddasi bo'lgan preparat va o'simliklar tushuniladi.

Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning analoglari (muqobillari) deyilganda - kimyoviy tuzilishi va xossalari ko'ra giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarga o'xshash, ular singari ruhiyatga faol ta'sir etuvchi, kelib chiqishi sintetik va tabiiy moddalar tushuniladi. Tibbiy (dorilar) vositalarga kirmaydigan aql idrokka ta'sir qiluvchi moddalarning katta guruhini, xususan, aql idrokka ta'sir qiluvchi xo'jalik. uy ro'zg'or uchun mo'ljallangan vositalar, zaharli modda va turli xil laklar, bo'yoqlar, yelimlar va shunga o'xshash moddalar tashkil etadi. Sanab o'tilgan moddalar nafas olinganda aql-idrokka ta'sir etadi va hushdan ketish holatini keltirib chiqaradi. Bu holatni nafaqat turli birikmalar, aseton, benzin, dvigateli ishlayotgan avtomobil gazi, "Moment" yelimi, sanoatda ishlatiladigan turli suyuqliklar va boshqa kimyoviy birikmalarni nafas olish, balki, dori vositalarini spirtli ichimliklar bilan qabul qilish ham keltirib chiqaradi. Oxirgi holatda so'z mastlik holatini kuchaytirish uchun qabul qilinadigan aralashmalar masalan, dimedrolning alkohol bilan, barbiturat - alkogolli aralashma, klofelin va

Aybdor shaxs tomonidan o'zida bo'lmaslik holatida sodir etilgan jinoyat fiziologik va giyohvandlik ta'sirida bo'lgan shaxsdek javobgarlikdan ozod etilmaydi.

Bundan tashqari, Jinoyat kodeksining 56-moddasi birinchi bandiga asosan, aql-idrokka ta'sir qiluvchi alkogol mastlik yoki giyohvand modda, psixotrop moddalar ta'sirida jinoyat sodir etish jazoni og'irlashtiruvchi holat hisoblanadi. Shu bilan birga, sud amaliyotida sudning jinoyat xususiyatidan kelib chiqib, og'irlashtiruvchi holatlarni tan olmaslik huquqi ko'pincha e'tiborga olinmaydi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksi

2. Бобоев Ж.И. Право потребителей и их защита по законодательству Республики Узбекистан // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. 2003. –№3. – Б.20-29.

3. Ф.С.Иноятова. Процессуальные механизмы обеспечения законности и обоснованности решения третейского суда. Автореф.дисс...канд.юрид.наук. – Ташкент. 19-с

4. <https://blogs.voanews.com/uzbek/talabalarshaharchasi/2011/08/07/ozbekistondayuridik-talim-muammolar-va-ularning-yechimi/>

5. <https://tsul.uz/uz/general-page/sovmestnie-obrazovatelynie-programmi>

6. Cyberleninka.ru,

7. stat.uz

8. ziyonet.uz

9. google.com

10. http://uzbi.uz